

---

## MAJBURIYATINI UNUTGAN OTA JAVOGBARLIKKA TORTILDI



Fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon tumanlararo sudining 2018 yil 26-fevral kungi sud buyrug'iga asosan Qo'shtepa tumani, Sarmozor MFY, Poytaxt ko'chasida yashovchi M.A.dan fuqaro S.M.foydasiga 1 nafar voyaga yetmagan farzandi ta'minoti uchun aliment undirish belgilangan edi.

Otalik majburiyatini bajarishdan bo'yin tovlagan qarzdor M.A 27 oy mobaynida jami 14.653.365 so'mlik aliment pullarini to'lamaganligi uchun Jinoyat ishlari bo'yicha Qo'shtepa tumani sudining 2022 yil 15-apreldagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Mjtkning 47 prim 4-moddasi 1-qismidagi huquqbuzarlikni sodir etgan deb topilib, unga nisbatan 15 sutka ma'muriy qamoq jazosi tayinlandi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2022-04-24 10:46:33